

**NIRMAL VARMANING BIR KUNLIK MEHMON, QUSHLAR VA TAFOVUT  
HIKOYALARIDA MAVZU VA GOYALARINING BADIY XUSUSIYATI**

**Tilovmurodova Shamsiqamar**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hind adabiyotida “नई कहानी” (“yangi hikoya”) yoʻnalishi asoschilaridan, yangi hikoyaning shakllanishi hamda hind adabiyotiga taʼsiri haqida fikr yuritilgan boʻlib, modernism yoʻnalishida ijod qilgan Nirmal Varmaning shu yoʻnalishda yozilgan hikoyalari “परिंदे” (“Qushlar”), “एक दिन का मेहमान” (“Bir kunlik mehmon”) va “अंतर” (“Tafovut”) ning mavzu va gʻoya xususiyatlari tahlilga olinadi.

**Tayanch soʻz va iboralar:** modernism, hind modernizmi, modernistik yoʻnalishlar, Nirmal Varma, Nirmal Varmaning ijodiy merosi, “नई कहानी” (“yangi hikoya”), “नई कहानी” (“yangi hikoya”) yoʻnalishi asoschilari, “एक दिन का मेहमान” (“Bir kunlik mehmon”), “Begonalashuv”, “oila”, “अंतर” (“Tafovut”), mavzu, gʻoya.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается формирование нового рассказа и его влияние на индийскую литературу, один из основоположников направления «नई कहानी» («новый рассказ») в индийской литературе. Будут проанализированы рассказы Нирмала Вармы “परिंदे” (“птицы”) “एक दिन का मेहमान” («Однодневный гость») и «अंतर» («Разница»), написанные в этом направлении.

**Ключевые слова:** модернизм, индийский модернизм, модернистские направления, Нирмал Варма, творческое наследие Нирмала Вармы, создатели «नई कहानी» («новая история»), «नई कहानी» («новая история»), париндэ («птицы»), мотив «отчуждения», «अंतर» («Разница»), тема, идея.

**Annotation.** This article discusses the formation of a new story and its impact on Indian literature, one of the founders of the “नई कहानी” (‘new story’) trend in Indian literature and Nirmal Varma's short stories “परिंदे” (“Birds”), “एक दिन का मेहमान” (“One day guest”) and “अंतर” (“Difference”) are analyzed.

**Keywords:** modernism, Indian modernism, modernist trends, Nirmal Varma, Nirmal Varma's creative legacy, founders of “नई कहानी” (“new story”), “नई कहानी” (“new story”), parindē (“Birds”), “Alienation” motive, एक दिन का मेहमान (“One day guest”) and “अंतर” (“Difference”), theme and idea.

Nafaqat Hind adabiyoti balkim gʻarb adabiyotida oʻz oʻrniga ega boʻlgan modern uslubida ijod qiluvchi mahoratli hind yozuvchilari Rajendra Yadav, Kamleshvar, Mohan Rakesh, Bhisham Sahni hamda Amarkant kabi ijodkorlar bilan birgalikda Nirmal Varma

1950-1960-yillar oralig'ida gullab-yashnagan hind badiiy adabiyotining sermahsul davr “नई कहानी” (“yangi hikoya”) yo’nalishi asoschilaridan biri hisoblanadi.<sup>39</sup> Nirmal Varma – yozuvchi, tarixshunos, tarjimon hamda Hindistonning eng buyuk yozuvchilari taqdirlanadigan “Jnanpith” mukofoti sovrindori. Ko’plab tanqidchilar uni “Yangi hikoya” yo’nalishining eng yorqin vakillaridan biri deb hisoblasalar ham<sup>40</sup>, yozuvchi ijodini bu uslubdan yiroqda ekanligini bir necha bor takidlagan.<sup>41</sup> Shubxasiz, yozuvchining yozish uslubini aniq bir yo’nalish yoki oqimga mansub deb aytish mushkul. Jahon adabiyoti bilan yaqindan tanishligi, aql bovar qilmaydigan falsafa bilan birgalikda, Yevropada olgan tajribasi barcha adabiy yo’nalishlarning chegarasini yorib o’tib o’ziga xos oqimga asos solishining asosiy sabablaridan deb hisoblash mumkin. Ijodini roman,esse, hikoya kabi nasriy janrlar boyitgan bo’lishiga qaramasdan, asosiy merosi uning takrorlanmas hikoyalari hisoblanadi. Adibning rasmiy asarlarida mavzu va g’oyalari mahorat bilan tanlangan bo’lib, bir qarashda kitobxonni o’yga cho’mib qo’yadi. Bu esa modernistik yo’nalishda ijod qiluvchi yozuvchilarga xos xususiyatlardan biri hisoblanadi. Ko’plab tanqidchilar hikoyalarning g’oyasi g’arblashib ketganligini tanqid ostiga oladi.<sup>42</sup> Nirmal Varma ham shu harakat asoschilaridan bo’lib, yozuvchi asarlari markazini begonalashish, muhojirlik va ruhiy shikastlanish, oila munosabatlari, jamiyatda urushdan so’ng paydo bo’lgan tushkunlik, ichki ozodlik kabi mavzular egallagan. Bu mavzular yordamida yozuvchi an’anaviy g’oyalardan uzoqlashib, hind adabiyotiga yangi g’oyalarni olib kirgan. Adibning dastlabki yangi hikoya yo’nalishida yozilgan “परिदे” (“Qushlar”)<sup>43</sup> nomli hikoyasi adabiyot ixlosmadlari tomonidan iliq kutib olingan bo’lib, davrda sodir bo’layotgan voqealar bir qiz “Latika” obrazi va uning hayoti orqali ochib berilgan. Nirmal Varmaning hikoyalari o’ziga xosligi, tilning yangi uslublari bilan 1960-yillar hind adabiyotida mutlaqo yangi yozish uslubini ochib berdi. Uning hikoyalari tahlil uchun juda murakkab bo’lib, yolg’izlikning asl tajribalari va hissiy iztirob yoki ichki inqirozning o’ta individualistik ifodasini ko’rsatib bergan. Uning hikoyalaridagi maqsad shaxsning ongiga qaratilgan: uning umidsizliklari, muloqotning yetishmasligi, izolyatsiya, yolg’izlik kabi kechinmalar orasida inson va uning hayoti bir-biriga zid qo’yiladi.

*लतिका और डाक्टर सिर उठाकर इन पक्षियों को देखते रहे। लतिका को याद आया, हर साल सर्दी की छुट्टियों से पहले ये परिन्दे मैदानों की ओर उड़ते हैं, कुछ दिनों के लिए बीच के इस पहाड़ी*

<sup>39</sup> Gordon C. Roadarmel, Modern Hindi Short Stories (Berkeley: University of California Press, 1972), 5.

<sup>40</sup> Namvar Singh, Kahani: Nayi Kahani (Story: New Story) (Allahabad: Lok Bharati Prakashan, 2012).

<sup>41</sup> Nirmal Verma on the Modern Short Story in Hindi.’ Conversations on Modernism: with reference to English, Hindi, and Urdu fiction. Ed. Sukrita Paul Kumar. Interview with Sukrita Paul Kumar. Shimla: Indian Institute of Advanced Studies, 1990. 12–27.

<sup>42</sup> Namvar Singh, Kahani: Nayi Kahani (Story: New Story) (Allahabad: Lok Bharati Prakashan, 2012).

<sup>43</sup> मेरी कहानियाँ-निर्मल वर्मा. Bhartiya Sahitya Inc., India-2013.

स्टेशन पर बसेरा करते हैं, प्रतीक्षा करते हैं बर्फ के दिनों की, जब वे नीचे अजनबी, अनजाने देशों में उड़ जायेंगे। क्या वे सब भी प्रतीक्षा कर रहे हैं? वह, डाक्टर मुकर्जी, मि. ह्यूबर्ट, लेकिन कहाँ के लिए, हम कहाँ जायेंगे?

Latika va doktor boshlarini ko'tarib, bu qushlarga qarashdi. Latika esladiki, har yili qishki ta'til oldidan bu qushlar tekisliklarga uchib, bir necha kun mana shu sohildagi tepalikdagi bekatda dam olib, qorli kunlarni kutib, begona, noma'lum yerlarga uchib ketishadi. Ularning hammasi ham kutishyaptimi? U, doktor Mukerji, janob. Hubert, lekin qayerni, qayerga boramiz.

Hikoyaning nomi sifatida “परिदे” (“Qushlar”) olingan bo'lib, bu begonalashuv motivining asosi sifatida xizmat qiladi. Yozuvchi qushlar motivi asosida o'tib borayotgan vaqtning hamda tashqi hayotning ahamiyatini yo'qotgan obrazlarni ochib berishga uringan. Ular xuddi qushlar singari yagona vatani ega bo'lmay, ular uchun eng ozod makon ularning ichki dunyosi bo'lib aynan shu makonda ular o'zlarini ozod va erkin his qiladilar.

Tahlilga olingan yozuvchining ikkinchi "Bir kunlik mehmon"<sup>44</sup> hikoyasi uchinchi shaxs tomonidan tasvirlab berilgan. Bir qarashda, bu shaxs yozuvchining ozidek tuyiladi. Hikoyada jamiyatning normalari qabul qilolmaydigan daxshatli goya kitobxon oldiga qoyilgan bolib, insonning ozodligi - oilaga nisbatan qarama-qarshiligi orqali ochib beriladi. Hikoya davomida yozuvchi yaqqol o'zini voqealar kuzatuvchisi sifatida korsatib kelgan bolsa-da, hikoyaning songidagina oz munosabatini bildiradi. Hikoyada vaqt tushunchasi toliq bolmasada, ammo qisman nisbiy tarzda bolib, bosh qahramonning shaxsiyati shakillanishiga aynan qanday turtkilar bolganli hikoya yakunigacha mavhum qolaveradi.

Jamiyatning asosi hisoblangan oilani buzilishi faqat bir insonni emas, balkim avlodga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jamiyatshunoslar hamda kitobxonlar butunlay bosh qahramonni mas'uliyatsizlikda ayblashi tabiiy holat. Ammo qahramonning erkinlikka bo'lgan qarashlari aksariyat jamiyatning ma'naviy qarashlariga zid keladi. Uning uchun eng erkin maskan uning ichki dunyosi bo'lib, yolg'iz yashasa ham u o'zini erkin his qiladi. Ayoliga nima sababli oilasidan begonalashganini tushuntirib bera olmaydi.

मैं अकेला रहता हूँ.. माँ के साथ।' उसने कहा।

औरत ने तनिक विस्मय से उसे देखा, 'क्या बात हुई?'

'कुछ नहीं... मैं शायद साथ रहने के काबिल नहीं हूँ।' उसका स्वर असाधारण रूप से धीमा हो आया, जैसे वह उसे अपनी किसी गुप्त बीमारी के बारे में बता रहा हो, 'तुम हैरान हो? लेकिन ऐसे लोग होते हैं...'

"Men yolg'iz yashayman... onam bilan", dedi u.

Ayol hayron bo'lib unga qaradi. "Nima bo'ldi?"

<sup>44</sup> Pratinidhi Kahaniyan-Nirmal Varma.Rajkamal Prakashan Pri. Li., Nai Dilli-110002.1988.p.124.

"Hech narsa... balki men hech kim bilan birga yashashga qodir emasman." Uning ovozi q'ayritabiiy darajada yumshoq edi, qo'yo u qandaydir yashirin kasalligi haqida gapirayotgandek. "Hayratlanyapsanmi? Lekin shunday kishilar bor ..."

Hikoyada yozuvchi oila va erklik g'oyalarini qarama qarshi qo'yadi. Hikoya davomida bu motiv bir tekisda davom etsa ham ammo, qizi va sobiq ayoli bilan xayrlashganda, motiv darajasi yana kuchayadi. Ya'niki bosh qahramonning bo'lingan dunyolari yana o'zi bilan birga kitobxon hamda yozuvchi uchun noma'lum joyga ketadi. Bosh qahramonning hayoti allaqachon qaytib bo'lmas nuqtaga kelib bo'lgan edi. Qahramon o'z hissiyotlaridan qochmaydigan, o'zligini qabul qilib yuksak erkinlikka erishgan odam. Butunlay majburiyatlaridan voz kechmagan faqat farzandi oldida va ilm oldida o'z vazifalarini bajaradi. Uning real hayotga bo'lgan munosabati juda nisbiy bo'lib, hayotdagi eng muhim narsasi oilasidan voz kechish bilan mutloq erkinlikka bag'ishlangan izlanish yakuniga yetadi.

Tahlildagi uchinchi hikoya "अंतर" ("Tafovut")<sup>45</sup>, yuqoridagi ikki hikoyadan ancha farq qiladi. Voqealar rivoji Pragada bo'lib o'tadi. Bu hikoya Yevropa madaniyati va zamonaviylashgan avlod hayoti va unda odob-axloq va insoniylik mavzulari ko'tarilgan. Nikohdan oldingi jinsiy aloqa haqida hikoya bo'lib, unda qiz abortdan keyin yigitga nafrat bilan qaraydi.

जब पिछली बार गर्मियों में वह उसके साथ मोराविया गई थी, तो भी वे बाहर सोते थे। एक ही स्लीपिंग किट में। वे इसी तरह सारा मोराविया घूम लिये थे। उसके साथ पहले-पहल उसे बाहर सोने की आदत पड़ गई थी। होटल की बचत होती थी, उसे वे हमेशा बिअर पर खर्च कर देते थे।

वह कुछ देर तक पिछली गर्मियों के बारे में सोचता रहा। फिर उसने मफलर को अच्छी तरह गले और कानों से लपेट लिया। ठण्ड काफी है।

— उसने सोचा— लेकिन असहनीय नहीं है।

O'tgan yozda u bilan Moraviyaga borganida, ular o'shanda tashqarida tunni o'tkazishgan edilar. Bir chodirda. Shu tariqa, ular butun Moraviya bo'ylab sayohat qilishgan edi. Boshlanishiga u bilan tashqarida uxlashga odatlana boshladi. Mehmonxona uchun jamq'arilgan pulni u doimo pivo uchun sarflar edi.

Bir muncha vaqt o'tgan yoz haqida o'ylanib qoldi. So'nq sharfini yaxshilab bo'yni va quloqlari bilan o'rab qo'ydi. Ancha buncha izq'irin edi.

—O'ylandi — chidasa bo'ladi.

Yozuvchilar hali ham shahar va qishloq qarama-qarshiligi to'g'risida yozishgan vaqtida, Nirmal Verma o'z zamondoshlari orasida bu odatiy, qoliplashtirilgan hikoyani rad etgan birinchi yozuvchi sifatida inson tajribasining chuqur ichki voqeliklariga murojaat qiladi. Yozuvchining hikoyalaridan davr muommolariga bo'lgan jamiyat munosobati turlicha ekanligini yaqqol sezish mumkin. Hikoyalardagi birlashtiradigan xususiyat o'rnatilgan xulq-atvor, fikrlash, tushkunlik kayfiyati bo'lsa, ularni aynan shu unsur asar

<sup>45</sup> मेरी कहानियाँ-निर्मल वर्मा.Bhartiya Sahitya Inc.,India-2013.

mazmuniga singdirib yuborish jihatidan bir-biridan farqlab turadi. Ko'rib turganimizdek, mustaqillikka erishgan jamiyatda paydo bo'lishiga bir qancha sabablar bo'lganligi, asta-sekin bu holat adabiyot markaziga aylanadi. Mamlakatning ikkiga bo'linishi ta'siridan "chuqur parchalanish" tuyg'usi uyg'ondi. Yozuvchi hikoyalarida bu parchalanish fojia sifatida olinmagan bo'lsa-da, biroq tushkunlik insonlar hayotining ajralmas qismiga aylangan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yozuvchi shaxsiy, vaqtinchalik va maxsus dunyo yaratadi va uning his-tuyg'ulari o'z zamondoshlarinikidan farq qiladi. Uning hikoyalari o'quvchilarni o'ziga xos til va uslubdagi shaxslararo munosabatlarning murakkab tarmog'iga chuqurroq kirib boradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Очерки истории литератур Индии: X-XX вв. .отв.ред. С.О.Цветкова-СПб.:С.-Петербург.2014.
2. Ҳиндистон адабиётида замонавий йўналишлар ва оқимлар. Ходжаева Т.А.Тошкент – 2012.6.24
3. मेरी कहानियाँ-निर्मल वर्मा.Bhartiya Sahitya Inc.,India-.2013.
4. 9. Namvar Singh, Kahani: Nayi Kahani (Story: New Story) (Allahabad: Lok Bharati Prakashan, 2012).
5. Gordon C. Roadarmel, Modern Hindi Short Stories (Berkeley: University of California Press, 1972), 5.
6. Nagendra.Report on modernity.Modernity and Contemporory Indian Literature.- Simla,1968.p.425.
7. Nirmal Verma, India. Lettre-ulysses-award.org. Retrieved on 22 May 2016.
8. Сенкевич, 1989: Сенкевич А. Н. «Общество. Культура. Поэзия (Поэзия хинди периода независимости)», -М., 1989.с.175